

**RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING  
INNOVATSION METODLARI VA TEXNOLOGIYALAR**

**Sharipova Saboxon Abdillajonovna,**  
*Ilmiy rahbar, University of business and science*  
[Sabohatsharipova2375@gmail.com](mailto:Sabohatsharipova2375@gmail.com)

**Jurakulov Shohrux Abduxamit o'g'li,**  
*University of business and science*  
*Ingliz tili filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi*  
[shohruxjurakulov6@gmail.com](mailto:shohruxjurakulov6@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar asosida xorijiy tillarni o'qitishning innovatsion metodlari va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotning nazariy asosini kommunikativ yondashuv, konstruktivizm va raqamli pedagogika konsepsiyalari tashkil etadi. Amaliy qismda gamifikatsiya, sun'iy intellekt (AI), mobil ta'lim (M-learning) hamda virtual reallik (VR) texnologiyalarining o'quv jarayonidagi roli o'rganilgan. Maqolada raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga keng joriy etish xorijiy til o'qitish sifatini yanada yaxshilashga xizmat qilishi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, xorijiy til o'qitish, sun'iy intellekt, gamifikatsiya, mobil ta'lim, virtual reallik, innovatsion metodlar.

**Annotation.** This article analyzes innovative methods of teaching foreign languages based on digital technologies and their impact on educational efficiency. The theoretical foundation of the study is built on communicative approach, constructivism, and digital pedagogy concepts. The practical section examines the role of gamification, artificial intelligence (AI), mobile learning (M-learning), and virtual reality (VR) technologies in the educational process. The study concludes that integrating digital technologies more broadly into the education system can further enhance the quality of foreign language teaching.

**Keywords:** digital technologies, foreign language teaching, artificial intelligence, gamification, mobile learning, virtual reality, innovative methods.

**Аннотация.** В данной статье анализируются инновационные методы преподавания иностранных языков на основе цифровых технологий и их влияние на эффективность обучения. Теоретическую основу исследования составляют концепции коммуникативного подхода, конструктивизма и цифровой педагогики. В практической части рассматривается роль геймификации, искусственного интеллекта (AI), мобильного обучения (M-learning) и технологий виртуальной реальности (VR) в образовательном процессе. В заключении подчеркивается, что широкое внедрение цифровых технологий в систему образования способствует дальнейшему повышению качества преподавания иностранных языков.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, преподавание иностранных языков, искусственный интеллект, геймификация, мобильное обучение, виртуальная реальность, инновационные методы.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi zamonaviy ta'lim jarayonlarida muhim o'rin egallab kelmoqda. Shuningdek, xorijiy tillarni mukammal o'qitishda ushbu texnologiyalar ta'limning sifatini oshirish, talabalarning qiziqishini kuchaytirish va ularning o'quv faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish imkonini birmuncha keng qilib yaratmoqda. Bugungi kun talablariga mos ravishda ta'lim metodlari zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilib, o'quv jarayonini yanada interaktiv

va qulay shaklga keltirish zarur. Mazkur maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarning afzallik tomonlari chuqur tahlil qilinib, ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri keng yoritiladi.

Mazkur maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda foydalanilayotgan raqamli vositalar va ularning o‘quv jarayoniga ta’siri o‘rganilgan. Metod sifatida o‘quv jarayonida raqamli platformalar va dasturlardan foydalanish tajribasi o‘rganilib, nazariy va amaliy tahlil o‘tkazilgan. Raqamli texnologiyalarning samaradorligini aniqlash uchun ilg‘or xorijiy tajribalar bilan bir qatorda mahalliy ta’lim tizimidagi amaliyotlardan foydalanilgan. Shuningdek, mualliflar o‘quvchilarning fikrlash, eshitish, so‘zlash va yozish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi texnologiyalarning rolini aniqlashga qaratilgan eksperimentlarni tahlil qildilar.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirib, xorijiy tillarni o‘qitishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, bu texnologiyalar o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlash, bilim olish jarayonini tezlashtirish va bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan o‘quv shakllarini joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Quyida ushbu texnologiyalarning xorijiy tillarni o‘qitishdagi afzalliklari batafsil bayon etiladi.

Mazkur maqolada zamonaviy raqamli ta’lim muhiti xorijiy tillarni o‘qitishda an’anaviy yondashuvlardan tubdan farq qilishini va uning qanchalik muhim ro‘l oynashini ko‘rib o‘tamiz. Bu jarayonning nazariy asosi kommunikativ til o‘qitish nazariyasi (Communicative Language Teaching), konstruktivizm hamda raqamli pedagogika konsepsiyasiga tayanadi. Ushbu yondashuvlarga ko‘ra, o‘quvchi faol ishtirokchi sifatida ta’lim jarayonining markaziga qo‘yiladi, texnologiyalar esa o‘rganish samaradorligini oshirish vositasi sifatida qaraladi. Innovatsion metodlar ichida sun’iy intellekt, gamifikatsiya, AR/VR texnologiyalari, mobil ta’lim (M-learning) va onlayn hamkorlik platformalari asosiy o‘rinni egallaydi. Biz ushbu innovatsion metodlarni va texnologik vosiyalarni xorijiy tilni organishda qanchalik muhimligini keltrib o‘tamiz ushbu maqolamiz.

Yuqorida tariflab otgan texnologik innovatsiyalardan biri bu - Gamifikatsiya — o‘yin elementlaridir. Biz (ballar, reytinglar, badges, darajalar, mukofotlar)ni o‘qitish faoliyatiga kiritish usulini bajaraish orqali tilni bevosida o‘rganib boramiz. Bu uslub o‘qitishni “o‘yin ichida” tajribaga aylantiradi va ovoz yozish funksiyasi (voice recording) — talaffuzni tekshirish va o‘z nutqini tahlil qilish imkonini beradi.

- Materiallarni saqlash (material storage) — o‘quvchi o‘z dars materiallarini telefon yoki kompyuterda saqlab, istalgan vaqtda foydalanishi mumkin.

- Avtomatik nutqni aniqlash (automated speech recognition) — talabalar talaffuzni mashq qilganda, tizim ularning aytgan so‘zlarini aniqlab, xatolarni ko‘rsatadi.

- Grammatika tekshiruv (grammar checking) — matn yozishda grammatik xatolarni topib, to‘g‘ri variantni tavsiya etadi.

Ushbu texnologiyalar tufayli til o‘rganish jarayoni tez, interaktiv va natijador bo‘lib bormoqda.[1]

Yana bir tilni o‘rganishdagi asosiy yordamchilaridan bir bo‘lgan sun‘iy intellekt (AI) kompyuter yordamida til o‘qitish (CALL) tizimlarining ajralmas komponenti sifatida shakllanib bormoqda. Dastlabki bosqichlarda AI qoidaviy dasturlar shaklida grammatik va leksik bilimlarni mustahkamlashga yo‘naltirilgan edi. Vaqt o‘tishi bilan bu tizimlar ma‘lumotlarga asoslangan yondashuvlar hamda Generativ sun‘iy intellekt (GenAI) texnologiyalari bilan boyitildi.

Mazkur texnologik taraqqiyot mashina tarjimai (machine translation), nutqni matnga aylantirish (speech-to-text) va boshqa til o‘rganish vositalarining aniqligi hamda samaradorligini oshirdi. Ayniqsa, GenAI ta‘lim paradigmasini qayta shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda, chunki u interaktiv, moslashuvchan va ilg‘or o‘quv tajribalarini taqdim etadi.[2]

Til o‘rganayotgan shaxslar o‘z o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun sun‘iy intellekt (AI) asosida ishlovchi turli vositalardan foydalanish imkoniga egadirlar. Ushbu vositalar o‘quvchilarga til o‘rganishni osonlashtirish, mustaqil mashq qilish va natijalarni tahlil qilishda yordam beradi;

- Lug‘at o‘rganish ilovalari (Vocabulary apps) – yangi so‘zlarni o‘rganish, takrorlash va kontekstda qo‘llashni mashq qilish imkonini beradi (masalan, *Quizlet*, *Memrise*).

- Imlo va grammatika tekshiruv tizimlari (Spelling and grammar checks) – yozma nutqdagi xatolarni aniqlash va tuzatish uchun xizmat qiladi (masalan, *Grammarly*, *LanguageTool*).

- Suhbat mashqi uchun chatbot texnologiyalari (Chatbot technology for conversational practice) – o‘quvchilarga real muloqotni simulyatsiya qilish, ya‘ni sun‘iy suhbatdosh bilan ingliz tilida gaplashish imkonini beradi (masalan, *ChatGPT*, *Replika*).

- Intellektual ta‘lim tizimlari (Intelligent tutoring systems) – foydalanuvchining bilim darajasiga mos ravishda shaxsiylashtirilgan topshiriqlar va tahliliy fikr-mulohaza (feedback) taklif qiladi.

Xususan xorijiy tillarni o‘qitishda mobil ilovalar va multimedia texnologiyalari eng samarali innovatsion vositalardan hisoblanadi. Mobil ta‘lim (M-learning) konsepsiyasiga ko‘ra, o‘quvchi istalgan joyda va vaqtda o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi. Bunda *Duolingo*, *Memrise*, *HelloTalk*, *BBC Learning English* kabi ilovalar so‘z boyligini oshirish, talaffuzni mashq qilish va grammatikani mustahkamlashda keng qo‘llaniladi. Ushbu ilovalar mikrota‘lim (short lessons) tamoyiliga asoslanadi, bu esa o‘quvchini ortiqcha yuklamasdan, uzluksiz o‘rganish jarayoniga jalb etadi. Misol

tariqasida, Ozoda Saydullayeva Nusrat qizi o‘zining “Ta’limni raqamli transformatsiya metodlari orqali modernizatsiya qilish: xorijiy tillarni o‘qitishda yangi yondashuvlar” maqolasida[3] ushbu tadqiqotlarni ko‘rsatib o‘tadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonlik talabalarning aksariyati xorijiy tillarni o‘rganishda mobil ta’lim ilovalaridan faol foydalanmoqda. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 75 foizdan ortiq talabalar mobil ilovalar orqali til o‘rganish jarayoniga bo‘lgan qiziqish va faollik darajasi oshganini qayd etgan. Ushbu natijalar jahon miqyosidagi umumiy tendensiyalar bilan uyg‘un bo‘lib, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham raqamli vositalarga talab ortib borayotganini ko‘rsatadi.[4]

Maqolamizda keltirib o‘tayotgan samarali innovatsion metodlar va real texnologik ilovalarning yana bir turi bu virtual reallik (VR) hisoblandi. Foydalanuvchilar real vaqt rejimida o‘zaro aloqada bo‘la oladigan, kompyuter tomonidan yaratilgan muhitni taqdim etuvchi zamonaviy texnologiyadir. VR texnologiyasi tibbiy tayyorgarlik , muhandislik va ko‘ngilochar soha kabi turli sohalarda keng qo‘llanilib kelmoqda. Biroq bu texnologiya ta’lim sohasida ham katta salohiyatga ega. VR texnologiyasini ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quvchilarga sinf xonasidan chiqmasdan turib, haqiqiy hayotdagi vaziyatlar bilan tanishish imkonini beradi.

Virtual reallik (VR) texnologiyasi xorijiy tilni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga real hayotga yaqin muhitda muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Bu usul o‘quvchilarni tilni faol qo‘llashga, eshitish, so‘zlash, va madaniy tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.

VR muhitida o‘quvchilar tilni nafaqat grammatik jihatdan, balki haqiqiy hayotdagi vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganadilar. Masalan, virtual do‘konga kirib xarid qilish, aeroportda chipta olish yoki restoran muhitida buyurtma berish kabi vaziyatlar orqali til amalda o‘rganiladi.

Xulosa qismida biz yuqorida keltirilgan tahlillarni umumlashtirgan holda, raqamli texnologiyalar xorijiy tillarni o‘qitishda muhim o‘rin tuta oladi deb bimalol ayta olamiz. Sun‘iy intellekt, gamifikatsiya, mobil ta’lim va virtual reallik kabi innovatsion vositalar o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonini interaktiv, qulay va samarali qiladi. Ushbu texnologiyalar orqali talabalar real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilishni o‘rganadilar, talaffuz va tinglab tushunish ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, bu texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni kuchaytiradi hamda individual yondashuvni ta’minlaydi. Natijada, raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirib, xorijiy tillarni o‘rganish jarayonini zamonaviy bosqichga olib chiqadi.

Kelajakda raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga yanada kengroq joriy etish, mahalliy sharoitga moslashtirish va ularni o‘qituvchilar malakasini oshirishda qo‘llash xorijiy til ta’limining yangi bosqichiga olib chiqadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Al-Ani, W. T. (2023). The Effectiveness of Gamified Tools for Foreign Language Learning (FLL): A Systematic Review. *Journal of Education and Information Technologies*, 28(5), 101–117. <https://doi.org/10.1007/s10639-023-11457>
2. Zhang, L. & Liu, X. (2024). The Role of AI in Language Learning: Research Evidence and Strategies for Success. *Computers & Education Review*, 72, 200–215.
3. Saydullayeva, O. N. (2024). Modernizing Education through Methods of Digital Transformation: New Approaches in Teaching Foreign Languages. *AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 2(12), 33–45. ISSN (E): 2993-2769. <https://ajllstem.com>
4. Papanastasiou, G., Drigas, A. S., Skianis, C., Lytras, M. D. (2023). Virtual Reality in Education: A Review of Learning Theories, Approaches Methodologies for the Last Decade. Department of Informatics and Computer Engineering, University of West Attica, Greece.
5. Sharipova S., Jamolidinova Sh. Methodological fundamentals of using lexical games and gaming devices at the English lesson // *Integration, Evolution, Modernization: Ways of Development of Science and Education*. – 2023. – T. 14. – № 1.
6. Sharipova S. Internet muloqoti yangi til hodisi sifatida // *Farg‘ona davlat universiteti*. – 2023. – № 6. – B. 197–197.
7. Sharipova S. A., Erkulova F. M., Mamatova D. M. Developing of professional competence of students by using authentic texts in teaching English // *Theoretical & Applied Science*,(11). – 2019. – C. 281-284.